



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



MAKTABGACHA TA'LIMDA MONITORING VA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Amanova Durdona Kaxramonovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari
va mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda
ularning malakasini oshirish instituti

“Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi” boshlig'i, p.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0006-2734-8981



Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tizimida monitoring va baholashning nazariy-metodologik asoslari, amaldagi holati hamda mavjud muammolari tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv, formativ baholash va raqamli texnologiyalar asosida monitoring hamda baholash tizimini takomillashtirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda pedagogik diagnostika, muntazam monitoring va zamonaviy baholash mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, monitoring, baholash, kompetensiya, pedagogik diagnostika, formativ baholash, raqamli texnologiyalar, ta'lim sifati, baholash mezonlari.

Abstract: The theoretical and methodological foundations, current state, and existing problems of monitoring and evaluation in the preschool education system are analyzed. The ways of improving the monitoring and evaluation system based on the competence-based approach, formative assessment, and digital technologies are highlighted. In addition, the importance of pedagogical diagnostics, systematic monitoring, and modern assessment mechanisms in improving the quality of education is substantiated.

Key words: preschool education, monitoring, assessment, competence, pedagogical diagnostics, formative assessment, digital technologies, quality of education, assessment criteria.

Аннотация: Проанализированы теоретико-методологические основы, современное состояние и существующие проблемы мониторинга и оценки в системе дошкольного образования. Освещены пути совершенствования системы мониторинга и оценки на основе компетентного подхода, формирующего оценивания и цифровых технологий. Кроме того, обоснована значимость педагогической диагностики, систематического мониторинга и современных механизмов оценивания в повышении качества образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, мониторинг, оценка, компетенция, педагогическая диагностика, формирующее оценивание, цифровые технологии, качество образования, критерии оценивания.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning muhim bosqichi hisoblanib, bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim jarayonida sifatni ta'minlash va samaradorlikni oshirish monitoring hamda baholash tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishini baholashda an'anaviy yondashuvlar o'rniga kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim sifatini baholashga oid xalqaro va milliy tadqiqotlar monitoring tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida baholashning samarali, ob'ektiv va shaffof tizimini yaratish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotda baholash mezonlarining yetarli darajada aniq emasligi, subyektiv yondashuvlarning mavjudligi hamda raqamli texnologiyalardan yetarli foydalanilmayotgani kabi muammolar kuzatiladi.

Monitoring tizimini takomillashtirish uchun kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, formativ baholashni kuchaytirish, pedagoglar malakasini oshirish hamda raqamli platformalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanib, zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida monitoring va baholash masalasi so'nggi yillarda alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ta'lim sifatini ta'minlash, bola rivojlanishini har tomonlama baholash va pedagogik jarayonni takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, pedagogik diagnostikaga oid ilmiy tadqiqotlarda baholash jarayonini faqat natijani qayd etish emas, balki rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rish zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa formativ baholashning ahamiyatini oshiradi.

Monitoring ta'lim jarayonini muntazam kuzatish va tahlil qilish orqali uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Baholash esa bolaning rivojlanish darajasini aniqlash bilan birga, uning keyingi rivojlanish yo'nalishini belgilashga yordam beradi [1].

Zamonaviy ta'limda formativ baholash alohida ahamiyat kasb etib, u bolaning rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilgan tadqiqotlar monitoring va baholash jarayonida bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Baholash mezonlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi natijalarni aniq va ishonchli aniqlashga to'sqinlik qiladi. Baholash jarayonida subyektivlikning yuqori ekanligi pedagoglarning shaxsiy qarashlari va tajribasiga haddan tashqari bog'liqlikni keltirib chiqarmoqda.

Monitoring samaradorligida bolalarning barcha ko'nikmalari baholanib, ularning kompleks rivojlanishini (intellektual, ijtimoiy, emotsional va jismoniy jihatlar) to'liq qamrab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda raqamli texnologiyalardan kam foydalanilishi monitoring jarayonini avtomatlashtirish va natijalarni tizimli tahlil qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu umumiy holda maktabgacha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishga olib keladi.

Xalqaro tadqiqotlar maktabgacha ta'limda monitoringning samarali modellari mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda bolalar rivojlanishi individual yondashuv asosida baholanadi [5]. Shuningdek, erta yoshdagi bolalar ta'limida markazli yondashuv va o'yin orqali o'rganish jarayoniga katta e'tibor qaratilgan. Bunda raqamli portfolio va doimiy kuzatuv tizimlari muhim o'rin tutadi.

Xorijiy tadqiqotlarda esa bola markazli yondashuv, individual rivojlanish trayektoriyasi va kompetensiyaviy baholash asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Bu tajribalar milliy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil metodi** – maktabgacha ta'limda monitoring va baholashga oid ilmiy adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.
2. **Kuzatish metodi** – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida baholash jarayonlari amaliy jihatdan o'rganildi.
3. **So'rovnoma metodi** – pedagoglar o'rtasida monitoring va baholash tizimi samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazildi.
4. **Taqqoslash metodi** – mavjud baholash tizimi va ilg'or tajribalar o'zaro solishtirildi.
5. **Tahlil va umumlashtirish metodlari** – olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida olib borilgan tadqiqotlarga tayanib, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish yo'llarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. **Kompetensiyaviy yondashuv** – bolaning faqat bilimlari emas, balki uning amaliy ko'nikmalari ham baholanishi lozim.
2. **Formativ baholashni joriy etish** – bu usul bolaning rivojlanish jarayonini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.
3. **Raqamli texnologiyalarni qo'llash** – zamonaviy axborot texnologiyalari monitoring jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiladi.
4. **Pedagoglar malakasini oshirish** – pedagogik diagnostika bo'yicha bilimlarni oshirish baholash samaradorligini kuchaytiradi.
5. **Ota-onalar bilan hamkorlik** – ota-onalarni baholash jarayoniga jalb qilish bola rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tizimli monitoring va formativ baholashni joriy etish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar baholashning aniqligini oshiradi ^[5, 7].

Demak, monitoring tizimini takomillashtirish faqat texnik o'zgarishlar emas, balki pedagogik yondashuvlarni ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu jarayonda milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Kompetensiyaviy yondashuv, formativ baholash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Monitoring ta'lim jarayonini muntazam kuzatish va tahlil qilish orqali uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali tarbiyachi va pedagoglar bolalarning rivojlanish darajasini aniqlab boradi, o'quv faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni o'z vaqtida ko'radi hamda tegishli choralarni belgilaydi. Natijada ta'lim jarayoni yanada tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi.

Monitoring faqatgina natijalarni qayd etish bilan cheklanmaydi, balki ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini – metodlar, vositalar, muhit va pedagogik yondashuvlarni ham qamrab oladi. Shu orqali qaysi usullar samarali ekanligi, qaysilari esa takomillashtirishni talab qilishi aniqlanadi. Masalan, ayrim bolalarda nutq rivoji sust bo'lsa, monitoring natijalariga asoslanib qo'shimcha mashg'ulotlar yoki individual yondashuv joriy etiladi.

Bundan tashqari, monitoring jarayoni ta'lim sifatini oshirishda muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. To'plangan ma'lumotlar asosida pedagoglar o'z faoliyatini tahlil qiladi, o'quv dasturlariga zarur o'zgartirishlar kiritadi hamda innovatsion metodlarni qo'llashga intiladi. Bu esa ta'lim jarayonining doimiy ravishda rivojlanib borishini ta'minlaydi.

Monitoringning yana bir muhim jihati – uning shaffofligi va uzluksizligidir. Doimiy ravishda olib boriladigan kuzatuvlar bolalarning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatilib, ularga bolaning rivojlanish holati haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar yetkaziladi.

Maktabgacha ta'limda baholash jarayoni faqat natijani emas, balki bolaning rivojlanish dinamikasini, uning qiziqishlari va individual xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy baholash tizimi kompleks va moslashuvchan bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'limda baholash tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – formativ (jarayonli) baholashni joriy etishdir. Bu usul orqali tarbiyachi bolani doimiy kuzatib boradi, uning yutuqlari va qiyinchiliklarini aniqlaydi hamda shu asosda individual yondashuvni ta'minlaydi. Bunday baholash bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uni yangi bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantiradi.

Shuningdek, baholash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'yin faoliyati asosida baholash, portfoliolar yuritish, rasm va ijodiy ishlarni tahlil qilish orqali bolaning rivojlanish darajasi aniqroq ko'rinadi. Bu usullar bolalarning stresssiz va erkin muhitda o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat – ota-onalarni baholash jarayoniga jalb qilishdir. Tarbiyachi va ota-ona o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanishini yanada samarali kuzatish imkonini beradi. Ota-onalarga bolaning yutuqlari va rivojlanish yo'nalishlari haqida muntazam ma'lumot berib borish baholash tizimining samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta'limda baholash tizimini takomillashtirish – bu bolalarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va sifatli ta'limni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Zamonaviy, moslashuvchan va bolaga yo'naltirilgan baholash tizimi orqali kelajak avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tizimida monitoring va baholash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida yagona baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- formativ baholash tizimini keng joriy etish va pedagoglarni ushbu yo'nalishda malakasini oshirish;
- pedagogik diagnostika vositalarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish;
- monitoring jarayonlarini raqamlashtirish, maxsus elektron platformalar yaratish;
- baholash jarayonida shaffoflik va obyektivlikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishga va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldashev J.G. Pedagogik diagnostika va baholash nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini boshqarish va monitoring qilish masalalari // Pedagogika va psixologiya. – 2020. – № 3(1). – B. 15–21.
3. Toshpo'latova M.A. Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari // Zamonaviy ta'lim. – 2022. – № 6(3). – B. 22–27.
4. Black P., Wiliam D. Developing the Theory of Formative Assessment.
5. OECD. Starting Strong 2017: Key OECD Indicators on Early Childhood Education and Care. – Paris: OECD Publishing, 2017. DOI: <http://dx.doi.org/10.1787/9789264276116-en>.
6. Shonkoff J.P., Phillips D.A. From Neurons to Neighborhoods. – 2000-yil.
7. UNESCO MGIEP. The Blue Dot: Rethinking Education. – Issue 7. – 2018. – MGIEP/2018/PI/H/1.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.